

**Qoraqalpog‘iston qishoq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Zooinjeneriya va veterinariya” kafedrası assistenti P.A.Ansatbaev
tomonidan Biotexnologiya fakulteti II-bosqich 60710200- Biotexnologiya
(tarmoqlar bo‘yicha) yo‘nalishi 201-guruh talabalariga Chorva mollarini
ko‘paytirish biotexnologiyasi fanidan “Baliq va asalari zotlari biologik
xususiyatlari, mahsuldorlik yo‘nalishlari va ko‘paytirish biotexnologiyasi”
mavzusida tayyorlangan ma‘ruza dars mashg‘uloti ishlanmasiga**

TAQRIZ

P.A.Ansatbaev tomonidan Zooinjeneriya fakulteti II-bosqich 201-guruh talabalariga Chorva mollarini ko‘paytirish biotexnologiyasi fanidan “Baliq va asalari zotlari biologik xususiyatlari, mahsuldorlik yo‘nalishlari va ko‘paytirish biotexnologiyasi” mavzusida tayyorlangan ma‘ruza darsini ishlanmasida baliq zotlari, ularning biologik xususiyatlari, mahsuldorlik yo‘nalishlari, bugungi kunda ularda olib borilayotgan naslchilik ishlari haqida ma‘lumotlar berilgan. Ma‘ruzada baliqlarni ko‘paytirishning yangi usullari, baliq maxsulotiga bo‘lgan talab bo‘yicha statistik ma‘lumotlar berilgan. Xuddi shunday asalari oilasi ularning yashovchanligi, maxsuldorligi bo‘yicha ham ma‘lumotlar batafsil yoritib berilgan.

Shunisi diqqatga sazovarki, P.A.Ansatbaev ma‘ruza dars mashg‘uloti ishlanmasini fanning ishchi dasturiga va ish rejasiga muvofiq holda tuzgan. Ma‘ruza matnida uslubiy ko‘rsatmalar to‘g‘ri qo‘yilgan. Ma‘ruzada berilgan nazorat savollari ma‘ruza matnidan tuzilib, soni ko‘paytirilsa yana ham maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xulosa qilib aytganda, ma‘ruza dars ishlanmasi uslubiy jihatdan to‘g‘ri yozilgan. U o‘zining hajmi, shakli, mazmun va mohiyati, ma‘ruza masalalarining yoritilishi bilan bugungi kun talabiga to‘liq javob beradi.

**Zooinjeneriya fakulteti “Yaylov
chorvachiligi, qorako‘lchilik, asalarichilik
va ipakchilik” kafedrası mudiri q.x.f.n.**

R.R. Ro‘zimurodov

**Qoraqalpog‘iston qishoq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Zooinjeneriya va veterinariya” kafedrası assistenti P.A.Ansatbaev
tomonidan Biotexnologiya fakulteti II-bosqich 60710200- Biotexnologiya
(tarmoqlar bo‘yicha) yo‘nalishi 201-guruh talabalariga Chorva mollarini
ko‘paytirish biotexnologiyasi fanidan “Baliq va asalari zotlari biologik
xususiyatlari, mahsuldorlik yo‘nalishlari va ko‘paytirish biotexnologiyasi”
mavzusida tayyorlangan ma‘ruza dars mashg‘uloti ishlanmasiga**

TAQRIZ

P.A.Ansatbaev tomonidan Zooinjeneriya fakulteti II-bosqich 201-guruh talabalariga Chorva mollarini ko‘paytirish biotexnologiyasi fanidan “Baliq va asalari zotlari biologik xususiyatlari, mahsuldorlik yo‘nalishlari va ko‘paytirish biotexnologiyasi” mavzusida tayyorlangan ma‘ruza darsini ishlanmasida Respublikamizda hovuz baliqchiligi bilan shug‘ullanadigan xo‘jaliklarda asosiy etishtiriladigan baliq zotlari, ularning umumbiologik xususiyatlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Ma‘ruzada baliqchilikda naslchilik ishlarining yuritilishi haqida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek to‘liq biologik etilgan asalari oilasi ularning ko‘payishi, mahsuldorligi, tinim davri bo‘yicha ham ma‘lumotlar batafsil yoritib berilgan. Fasllar kesimida asalari oilasidagi individlar bosh sonini o‘zgarib borishining sabablari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

P.A.Ansatbaev tomonidan tayyorlangan ma‘ruza dars mashg‘uloti ishlanmasi fanning ishchi dasturiga va ish rejasiga mos holda tuzilgan. Ma‘ruza matnida uslubiy ko‘rsatmalar to‘g‘ri qo‘yilgan. Ma‘ruzada berilgan reja asosida masalalarni yoritishda raqamli izohlardan foydalanilsa yanada maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xulosa qilib aytganda, ma‘ruza dars ishlanmasi uslubiy jihatdan to‘g‘ri yozilgan. U o‘zining hajmi, shakli, mazmun va mohiyati, ma‘ruza masalalarining yoritilishi bilan bugungi kun talabiga to‘liq javob beradi.

**SamDU Biologiya fakulteti
Genetika va biotexnologiya kafedrası
b.f.n dotsent**

G.A. Dushanova